



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025-yil "26" iyun

BUYRUQ № 64

Toshkent sh.

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi to'g'risidagi nizomga muvofiq, statistika organlarida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishni tartibga solish maqsadida, **buyuraman:**

1. Statistika sohasida ma'muriy ishlarni yuritish tartibi to'g'risidagi nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari, statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qo'llashda ma'muriy ish hujjatlarini "E-ma'muriy ish" yagona axborot tizimi orqali va ushbu Nizomga muvofiq o'z vaqtida va sifatli yuritilishini ta'minlasinlar.

3. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi (D. Zakirov) statistika organlarida ma'muriy ishlarni Nizom talablari asosida yuritilishi yuzasidan doimiy monitoring va nazorat olib borishni ta'minlasin.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018-yil 1-iyundagi 62-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish rais o'rinbosari Z. Ziyayev zimmasiga yuklatilsin.

Rais

B. Hamrayev